

ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**



2021 йил махсус сон



Бош муҳаррир: Наманган давлат университети ректори С.Т.Тургунов

Масъул муҳаррир: Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор М.Р.Қодирхонов

Масъул муҳаррир ўринбосари: Илмий тадқиқот ва илмий педагогик кадрлар тайёрлаш бўлими бошлиғи Р.Жалалов

ТАҲРИРҲАЙЪАТИ

Физика-математика фанлари: акад. С.Зайнобиддинов, акад. А.Аъзамов, ф-м.ф.д., доц. М.Тўхтасинов, ф-м.ф.д., проф. Б.Саматов. ф-м.ф.д., доц. Р.Ҳакимов, ф-м.ф.д., М.Рахматуллаев.

Кимё фанлари: акад.С.Рашидова, акад. А.Тўраев, акад. С.Нигматов, к.ф.д., проф.Ш.Абдуллаев, к.ф.д., проф. Т.Азизов.

Биология фанлари: акад. К.Тожибаев, акад. Р.Собиров, б.ф.д. доц.А.Баташов, б.ф.д. Н.Абдурахмонов.

Техника фанлари: - т.ф.д., проф. А.Умаров, т.ф.д., проф. С.Юнусов.

Қишлоқ хўжалиги фанлари: – г.ф.д., доц. Б.Камалов, қ-х.ф.н., доц. А.Қазақов.

Тарих фанлари: – акад. А.Асқаров, с.ф.д., проф. Т.Файзуллаев, тар.ф.д, проф. А.Расулов, тар.ф.д., проф. У.Абдуллаев.

Иқтисодиёт фанлари: – и.ф.д., проф.Н.Махмудов, и.ф.д., проф.О.Одилов.

Фалсафа фанлари: –ф.ф.д., проф. М.Исмоилов, ф.ф.н., О.Маматов, PhD Р.Замилова.

Филология фанлари: – акад. Н.Каримов, фил.ф.д., проф.С.Аширбоев, фил.ф.д., проф. Н.Улуқов, фил.ф.д., проф. Ҳ.Усманова. фил.ф.д.,проф. Б.Тухлиев, фил.ф.н, доц.М. Сулаймонов.

География фанлари: - г.ф.д., доц. Б.Камалов, г.ф.д доц К.Боймирзаев

Педагогика фанлари: - п.ф.д., проф. У.Иноятгов, п.ф.д., проф. Б.Ходжаев, п.ф.д., п.ф.д., проф. Н.Эркабоева, п.ф.д., проф.Ш.Хонкелдиев, п.ф.д., проф Ў.Асқарова, п.ф.н., доц. М.Нишонов, PhD П.Лутфуллаев.

Тиббиёт фанлари: – б.ф.д. Ғ.Абдуллаев, тиб.ф.н., доц. С.Болтабоев.

Психология фанлари – п.ф.д.,проф З.Нишанова, п.ф.н., доц. М.Махсудова

Техник муҳаррир: Н.Юсупов

Таҳририят манзили: Наманган шаҳри, Уйчи кўчаси, 316-уй.

Тел: (0369)227-01-44, 227-06-12 **Факс:** (0369)227-07-61 **e-mail:** ilmiy@inbox.uz

Ушбу журнал 2019 йилдан бошлаб Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси Раёсати қарори билан физика-математика, кимё, биология, фалсафа, филология ва педагогика фанлари бўйича Олий аттестация комиссиясининг диссертациялар асосий илмий натижаларини чоп этиши тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

“НамДУ илмий ахборотномаси–Научный вестник НамГУ” журнали Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигининг 17.05.2016 йилдаги 08-0075 рақамли гувоҳномаси ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги (АОКА) томонидан 2020 йил 29 август куни 1106-сонли гувоҳнома га биноан чоп этилади. “НамДУ Илмий Ахборотномаси” электрон нашр сифатида ҳалқаро стандарт туркум рақами (ISSN-2181-1458)га эга НамДУ Илмий-техникавий Кенгашининг 27.10.2021 йилдаги кенгайтирилган йиғилишида муҳокама қилиниб, илмий тўплам сифатида чоп этишига рухсат этилган (**Баённома № 13**). Мақолаларнинг илмий савияси ва келтирилган маълумотлар учун муаллифлар жавобгар ҳисобланади.



Проще говоря, наша народ, история которой насчитывает не менее 3500 лет, много раз подвергалась угнетению и трижды преуспевала в эпоху Возрождения под руководством своих великих лидеров. Великий ученый Абу Наср аль-Фараби в своей книге «Город благородных людей» очень серьезно говорил о различных деструктивных идеологиях. Он также призвал будущее поколение, которое придет тысячу лет спустя, быть всегда бдительными[5].

Фитрат, один из представителей джадидизма, 100 лет назад, в начале XX века, писал об этой проблеме: «Их желание не состоит в том, чтобы дать нам культуру, обучать и развивать нас, а в том, чтобы полностью разрушить нашу мораль, разрушить и наше здоровье, высушить наши семена, сделать нас совершенно бесполезными и заставить нас нуждаться в них»[6].

Великий писатель нашего времени Чингиз Айтматов с озабоченностью высказался по поводу уродливого образа идеологических угроз человечеству: «Каждая семья всегда должна быть готова защитить своих детей от любой идеологической агрессии».[7]

Список использованной литературы :

1. Отдел Исламского просвещения ДУМД, 2005. — 18 с. Книга составлена по материалам книги "Кисас-уль-Анбия" (История пророков) Саида Афанди
2. Ш. Мирзиёев. <https://www.gazeta.uz/ru/2021/01/19/ideology/>
3. Постановление Президента Республики Узбекистан о Поднятии на новый уровень повышения эффективности духовно-просветительской работы и развития сферы / <https://lex.uz/docs/4071207>
4. Каримов И.А. Высокая духовность — непобедимая сила. — Т.: Узбекистан, 2008.
5. Абу Наср Фаробий Фозил одамлар шахри. — Т., 1993. — Б., 222
6. Эдвард А. Олворт: Озабоченности Абдалрауфа Фитрата. Бухарский нонконформист: анализ и список его сочинений. Дас Араб. Бух, Берлин 2000.
7. Айтматов Ч. Собр. соч. в 2-х тт. Т.1. - М., 1986.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA HARAKATLI O'YINLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Ismoilov Turobjon, Nam DU dotsenti
Sultanov Baxtiyor, Nam DU magistri
Artikova Nigora, Nam DU magistri

Annotatsiya: *ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'quv jarayonida o'tkaziladigan harakatli o'yinlarni ahamiyati yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *jismoniy tarbiya, sog'lomlashtirish, jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik, harakatli o'yinlar, pedagogik tajriba.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПОДВИЖНЫХ ИГР УРОКА ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Исмоилов Туробжон, доцент НамГУ
Султонов Бахтиёр, магистр НамГУ
Артикова Нигора, магистр НамГУ



Аннотация: в данной статье раскрывается важность развития проведения учеников начальных классов с помощью подвижных игр в процессе обучения.

Ключевые слова: физическое воспитание, оздоровление, физическое развитие, физическая подготовка, подвижные игры, педагогический эксперимент.

EFFICIENCY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS USING ACTIVE GAMES IN PHYSICAL EDUCATION CLASSES

Ismoilov Turobjon, assistant of professor of Nam SU

Sultanov Baxtiyor, master degree of Nam SU

Artikova Nigora, master degree of Nam SU

Annotation: this article is dedicated to the study of the importance of health care activities held in primary forms of secondary schools.

Key words: physical treatment, recovery, physical developing, physical preparation, physical training, mobile activities, pedagogical experience.

Respublikamiz rahbariyati tomonidan mamlakatimizda mustakillikning ilk kunlaridan boshlab o'sib kelayotgan yosh avlodni sog'lom qilib tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Bu boradagi ishlarni amalga oshirishda «Jismoniy tarbiya va sport to'grisida»gi qonun, «Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'grisida»gi qaror va "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'grisida"gi va « O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'grisida»gi farmonlar muhim ahamiyatga ega bo'ldi [1;2;3;4].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarni jismonan sog'lom qilib tarbiyalashda harakatli o'yinlarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Shu boisdan ham harakatli o'yinlar o'sib kelayotgan yosh avlodni jismonan sog'lom, aqlan etuk va har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinflar uchun ishlab chiqilgan jismoniy tarbiya dasturida harakatli o'yinlar asosiy o'rinni egallaydi.

Harakatli o'yinlar 1-4-sinflarni ta'limiy, tarbiyaviy va sog'lomlashtirish jarayonida muhim o'rinni egallab, bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish, jismoniy tayyorgarligini oshirish va salomatligini mustahkamlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [5].

Boshlang'ich sinflarda harakatli o'yinlarni o'ynash bolalar uchun qiziqarli bo'lib, organizimning tashqi muhit va turli xil ta'sirlarga chiniqishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Harakatli o'yinlar bolalar organizimini chiniqtirish bilan birga do'stlik, o'zaro yordam, tashkilotchilik, intizomlilik, ma'suliyatini his qilish va javobgarlik kabi fazilatlarni shakllantirishda asosiy vositalardan biri b'lib hisoblanadi [6].

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya jarayonida o'quvchilarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash katta ahamiyatga egadir. Jismoniy tarbiya fani bo'yicha davlat ta'lim standartlari va jismoniy tarbiya dasturi bo'limlariga gimnastika, yengil-atletika, sport o'yinlari, suzish, milliy kurash, futbol kabi sport turlari bilan bir qatorda harakatli o'yinlarga ham alohida soat berilgan.

Harakatli o'yinlar boshlang'ich sinf jismoniy tarbiya dasturida asosiy o'rinni egallaydi. Shu boisdan ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy rivojlanishini,



tayyorgarligini va jinsini hisobga olgan holda harakat sifatlarini rivojlantirish katta ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarni jismoniy sifatlarini tarbiyalashda harakatli o'yinlardan samarali foydalanish kerak. Harakatli o'yinlar boshlang'ich sinf o'quvchilarini kuch, tezkorlik, egiluvchanlik, chidamlilik va chaqqonlik kabi harakat sifatlarini tarbiyalashda, tabiiy harakatlarni rivojlantirishda, harakat ko'nikma va malakalariga shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir.

Kichik sinf yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalashda, harakat ko'nikma va malakalarini shakllantirishda, ularni odob-axloqini, estetik didini, do'stlik va birdamlikni, baynalminal ruxda tarbiyalashni, o'zaro xurmat qilishni, milliy urf-odat va an'analarni qadriga yetishni o'rgatishda milliy va harakatli o'yinlarni ahamiyati beqiyosdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini harakat sifatlarini tarbiyalashda harakatli o'yinlardan o'quv kun tartibidagi sog'lomlashtirish jarayonida, jismoniy tarbiya darslarida, darslardan tashqari mashg'ulotlarda, bayramlarda, sport mashg'ulotlarida foydalanish bugungi kundagi asosiy vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarni jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlardan foydalanib, ularni jismoniy sifatlarini tarbiyalash va harakat ko'nikma va malakalarini shakllantirishda, o'yinning mazmuni, tuzilishi bilan bir qatorda, o'yin samaradorligini oshirish, o'quvchilarga tushayotgan jismoniy yuklamani kamaytirish yoki ko'paytirish, harakat sifatlarini tarbiyalash, bolalarni qiziqishini yanada orttirish uchun harakatli o'yinlarning turli variantlarini qo'llash dolzarb masalalardan biridir.

Haftada o'tkaziladigan ikki soatli jismoniy tarbiya darslari jarayonida o'quvchilarning pedagogik xususiyatlarini hisobga olgan holda harakatli o'yinlarning turli variantlarda o'tkazish orqali dars oldiga qo'yilgan ta'limiy, tarbiyaviy, sog'lomlashtirish vazifalarini sifat va samaradorligini yanada oshiriladi.

Jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlardan foydalanishda shug'ullanuvchilarni yoshini, jismoniy tayyorgarligini hisobga olib yurish, yugurish, uloqtirish, sakrash, emaklab o'tish kabi harakatlarda o'yin variantlarini o'zgartirib bolalar faoliyatini almashtiriladi va ijobiy samaraga erishiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarni jismoniy tarbiya darslaridagi xarakatli o'yinlar jismoniy tarbiya darsining asosi hisoblanadi. Shuning uchun maktab jismoniy tarbiya dasturida xarakatli o'yinlarga boshqa materiallarga nisbatan ko'proq vaqt ajratilgan. Dasturga kiritilgan xar-xil jismoniy mashqlarni bolalar turli o'yinlar vositasida idrok qiladilar va o'zlashtiradilar. Ularga yugurib kelib uzunlikka sakrashni o'rgatish bo'yicha aloxida mashg'ulot o'tkazilganda, mashqni tushuntirish, amalda ko'rsatish, bajarish va qanday bajarilganini aniqlash, xatolarini tuzatish va xokazolar bolalar uchun zerikarli bo'ladi. Agar bu jarayonda sakrashni o'rgatish elementi bor o'yindan foydalanilsa maqsadga osongina erishiladi.

9-10 yoshli o'quvchilar bilan xarakatli o'yinlarni darsning asosiy va yakunlovchi qismida o'tkazish tavsiya etiladi, chunki dasturda darsning kirish qismida saf mashqlarini o'tkazish belgilangan. O'quvchilar bilan o'tkaziladigan o'yinlarda yugurish, sakrash, uloqtirish yoki irg'itish kabi xarakatlar bajarilishiga aloxida e'tibor berish lozim. Bu yoshdagi bolalar bilan asosan oddiy va o'rtacha murakkablikdagi o'yinlar o'tkaziladi. Agar bolalar yetarli darajada tayyorlangan bo'lsa, yanada murakkabroq, ya'ni jamoaga bo'linib o'ynaladigan o'yinlarni xam o'tkazish mumkin. O'quvchilar bu o'yinlarda birgalikda xarakat qilishni o'rganadilar. Bu esa butun jamoaning, barcha ishtirokchilarning xarakatli o'yindagi mas'uliyatini yanada orttiradi.



О'қувчилар билан о'tkaziladigan jamoali o'yinlar yetarli darajada kuch, chaqqonlik, epcillik, egiluvchanlik, chidamlilik va jismoniy tayyorgarlikni talab qiladi va ayni paytda bu xususiyatlarni takomillashtiradi.

Jismoniy tarbiya darslari ko'pincha turli xildagi xarakatli o'yinlardan iborat bo'ladi. O'qituvchi xarakatli o'yinlar yordamida jismoniy tarbiya darslarini qiziqarli o'tadi va 9-10 yoshli o'quvchilarida turli xarakat ko'nikma va malakalarni xosil qiladi.

9-10 yoshli o'quvchilari xarakatli o'yinlarda qatnashganlarida ularning xarakatlari faollashib, tartibli va aniqroq bo'lib boradi.

O'yinlar o'quvchilarning pedagogik imkoniyatlarini hisobga olib birmuncha murakkablashtiriladi. O'qituvchi o'z oldiga o'quvchilarda sportning biror turi bo'yicha xarakat ko'nikmalarini xosil qilish vazifasini qo'ysa, ayrim darslar shu vazifani bajarishda yordam beradigan o'yinlardan iborat bo'lishi mumkin. Shuni xam nazarda tutish kerakki, xarakatli o'yin darslarini o'tkazish o'quvchilardan ayrim o'yin xarakatlari ko'nikmalariga ega bo'lishni ham talab qiladi. O'yin darslarini xar o'quv choragining xar o'n kunlarida o'tkazish maqsadga muvofiqroqdir. Chunki shunda o'qituvchiga bolalar qanday xarakat ko'nikmalarini egallaganini aniqlash imkonini beradi.

Xarakatli o'yinlar 9-10 yoshli o'quvchilarni darslarida xam ancha keng o'rin oladi. Bu sinflardagi xarakatli o'yinlarni jismoniy tarbiya darslarida xosil qilingan ko'nikmalarini takomillashtirish va mustaxkamlash uchun xizmat qiladi. Darsning asosiy qismi muayyan vazifani amalga oshirishga, asosiy elementlarni o'rgatishga doir o'yin materiallaridan iborat bo'lsa, uning kirish qismida xarakatli o'yinlardan foydalanish mumkin. Bunday xollarda darsning asosiy qismiga o'yinlar kiritiladi. O'yinlardan foydalanishda faqat ularning elementlari qanchalik tez bajarilganini emas, balki bajarilish sifatini xam aloxida hisobga olish kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakat sifatlarini oshirish uchun haftada o'tkaziladigan ikki soatli jismoniy tarbiya darslari va o'quv kun tartibidagi sog'lomlashtirish tadbirlari jarayonida o'tkaziladigan xarakatli o'yinlarni samaradorligini oshirishda bolalarning pedagogik xususiyatlarini etarli darajada hisobga olish muhim ahamiyatga ega ekanligi ma'lum bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Ўзбекистон Республикасининг «Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида»ги Қонуни (2015. 04.09). Халқ сўзи. –Тошкент, 2015. 5 сентябр.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони. – Тошкент: “Адолат”, 2017. -112 б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони. –Тошкент, 2020. 24 январь.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори (2017. 3 июн). Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами № 23. –Тошкент, 2017. 12 июн.
5. Исмоилов Т.У. Бошланғич синфларда жисмоний тарбия-соғломлаштириш тадбирларининг педагогик хусусиятлари. Дис. ... пед.фан.ном. –Тошкент: 2010. -157 б.



6. Салимов Ғ. М. Миллий ҳаракатли ўйинлар асосида 7-10 ёшли ўқувчиларнинг жисмоний сифатларини ривожлантириш самарадорлиги. Дисс.... пед. фан. ном. – Тошкент: 2007. - 146 б

НОТЎЛИҚ ОИЛАЛАРДА БОЛАЛАРНИ ИЖТИМОИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК МЕХАНИЗМЛАРИ

Муножатхон Асранбаева Халимжановна

Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори, (PhD)

Наманган давлат университети

Аннотация: Мақолада нотўлиқ оила болаларини ижтимоий ҳаётга тайёрлашнинг педагогик механизми шакллантирилган бўлиб, тадқиқот жараёнида ишлаб чиқилган механизм бир нечта турдаги билимларнинг ўзаро алоқадорлигини таъминлаш, уларнинг яхлит шакл ёки тизимга келтириш, ўрганилаётган маълумотларни қадрият-моҳиятли мазмун билан бойитиш ҳамда бу орқали нотўлиқ оилаларда болаларни ижтимоий ҳаётга тайёрлашга имконият яратади.

Калит сўзлар: нотўлиқ оила, герантопедагогика, компетенциявий ёндашув, ижтимоий ҳаёт, техноген омилар, фаолият, метод, герменевтик, психотерапевтик, адаптив.

Аннотация: В статье сформулирован педагогический механизм подготовки детей из неполных семей к социальной жизни, разработанный в процессе исследования, который позволит обеспечить взаимосвязь нескольких видов знаний, привести их в целостную форму или систему, обогатить изучаемые данные ценностно-значимым содержанием и тем самым подготовить детей в неполных семьях к социальной жизни.

Ключевые слова: неполная семья, герантопедагогика, компетентный подход, социальная жизнь, техногенный фактор, деятельность, метод, герменевтика, психотерапия, адаптив.

Мамлакатимизда етим ва нотўлиқ оила болаларини ижтимоий ҳаётга тайёрлаш тизимини такомиллаштириш, миллий ва жаҳон тажрибаси асосида инновацион тарбия технологияларини татбиқ этишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Шу билан бирга, дастурий босқичма-босқич ижтимоий етимликни олдини олишнинг профилактик тизимини ишлаб чиқиш, нотўлиқ оилада тарбияланаётган болаларни мустақил ҳаётга тайёрлашнинг педагогик шарт-шароитларини такомиллаштиришни тақозо этади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармонида “Етим ва нотўлиқ, кам таъминланган оилалар болаларининг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, ижтимоий фаоллигини ошириш, турмуш шароитларини яхшилаш”⁶⁸ каби муҳим вазифалар белгилаб берилди. Бу эса, нотўлиқ оила болаларини ижтимоий қўллаб-қувватлаш тизимини ишлаб чиқиш долзарб масала эканлигини кўрсатади.

Оила – ўзининг ижтимоий-маданий ривожланиш жараёнида ўз шажарасининг миллий қадриятларини сақловчи, ижодий ўзлаштирувчи, замонавийлаштирувчи ва бойитувчидир. Ана шундай инсоний бурчларнинг ҳар бир оила томонидан мукаммал

⁶⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони. – Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.



142	К вопросу о роли духовности в формировании патриотизма у молодежи Джуманазарова З.	673
143	Boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlardan foydalanish samaradorligi Ismoilov T., Sultanov B., Artikova N.	677
144	Нотўлиқ оилаларда болаларни ижтимоий ҳаётга тайёрлашнинг педагогик механизмлари Асранбаева М.Х.	681
145	Ўқувчиларда ўзбек менталитетига хос маънавий-ахлоқий хусусиятларни шакллантиришда бадиий асарларнинг ахамияти Усмонова М.Б.	688
146	Во'лажак о'қитувчиларда media kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari Qambarov M.M.	693
147	Эффективность применения творческих заданий в развитии речевой деятельности Мирзахалова Г.У.	698
148	Ўсмирлик ёшидаги болаларнинг морфофункционал хусусиятлари Иминжанов Р.А., Холматов Н.У.....	702
149	Ҳарбий ватанпарварлик тарбиясига қўйиладиган замонавий ижтимоий-педагогик талабалар Мамажонов Р.А.	707
150	Педагог кадрлар малакасини ошириш жараёнида тингловчиларда касбий компетентликни оширишнинг педагогик шарт-шароитлари Неъматова С.И.	713
151	"Inklyuziv ta'lim muhitida pedagogik faoliyatni tashkil etishning hozirgi kun muammolari" Хусанов А.А.	720
152	Тиббий педагогикада модел ва векторли моделлаштириш Кадирова М.Р.	724
153	1-синф ўқувчиларида мантиқий масалалар ёрдамида математик тафаккурни шакллантириш Каримова К.Р.	733
154	Мактабгача таълим ёшидаги боланинг тарбиялашда оила, маҳалла ва нодавлат нотажорат ташкилотлари ҳамкорлиги. Абдуллаева М.А., Абдуллаева Н.С.	740
155	Бошланғич синф ўқувчиларида креатив фикрлаш кўникмаларини ривожлантириш технологиялари Тўраева Н.З.	744
156	Олий таълимда Э.Воҳидов ижодининг мултимедияли таъминотини яратишда ахборот дастурий воситалардан фойдаланиш Хўжамбердиева Ш.К.	748
157	Публицистика писателей как источник обогащения педагогического процесса Абдулвохидов Э.	753